

IJODIY QOBILIYAT ZAMONAVIY ZARURAR SIFATIDA

Axmedov Baxtiyor Tursunovich*TerDPI katta o'qituvchisi***Musayeva Farangiz Faxriddin qizi***Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich**talabasi Farangizmusayeva78@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodiy qobiliyat va uning inson hayotiy faoliyatidagi o'rni xususidagi fikr yuritiladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlari, pedagogik yondashuvlar natijasida, shaxsiy rivojlanish va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga e'tibor qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar orqali ijodiy qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: talaba, ijodiy qobiliyat, innovatsion fikrlash, kreativlik, pedagogik yondashuv, shaxsiy rivojlanish, individual xususiyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается творческое мышление и его роль в жизни человека. Анализируются методы развития творческого мышления в результате педагогических подходов, личностного развития и его роли в развитии общества. Также рассматриваются методы выявления и развития творческих способностей на основе современных педагогических и психологических исследований.

Ключевые слова: студент, творческое мышление, инновационное мышление, креативность, педагогический подход, личностное развитие, индивидуальные характеристики.

Kirish

Yoshlik – bu faqat yosh emas, bu – dunyoni o'zgartirishga qodir kuch. Ijodkorlik va innovatsion fikrlash aynan shu kuchning eng yorqin ko'rinishidir. Zamonamizda yangi g'oyalarni tug'dirish, muammolarni yangicha echish va o'zgaruvchan dunyoga moslashish qobiliyati har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda. Shu sababli har bir talabada ijodkorlikni uyg'otish, ularning ichki olovlarini yoqish – bugungi ta'limning eng dolzarb vazifasidir.

Ijodkorlik – bu yangilik yaratish, muammoni boshqacha ko'rish va odatiy yo'ldan chetga chiqish qobiliyati. Innovatsion fikrlash esa – shu ijodkorlikning amaliy ko'rinishi: yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish, mavjud bilimlarni yangicha qo'llash va kelajak uchun yangi yo'l ochishdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodkorlik nafaqat shaxsning o'ziga, balki butun jamiyatga foyda beradi. Yangi g'oyalar, yangi echimlar, yangi imkoniyatlar – barchasi

ijodkor yoshlar qo‘lidan chiqadi. Shuning uchun ta’limda interfaol metodlar, loyiha ishlari, guruhli muammo echish va ochiq muloqot asosidagi mashg‘ulotlar eng samaralidir.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, ijodkorlikning eng muhim sharti – ichki motivatsiya, qiziqish va ijobiy muhitdir. Talaba o‘zi xohlagan ishni qilsa, o‘zining g‘oyasini amalga oshirsa – uning ijodiy qobiliyati portlaydi. Shuning uchun pedagogning vazifasi – talabani “to‘g‘ri javob”ga emas, “yangi savol”ga undashdir.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy qobiliyat va innovatsion fikrlash talabalarning kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq. Talabalar yangi g‘oyalarni yaratishda hamfikrlar bilan muloqot qiladi, fikr almashadi va boshqalarning tajribasidan o‘rganadi. Shu jarayon talabalarning muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish va hamkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, ijodiy qobiliyatni shakllantirish jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olish zarur. Har bir talaba o‘ziga xos qiziqish, kuchli va zaif tomonlarga ega. Pedagoglar bu xususiyatlarni hisobga olib, talabalarga moslashgan mashg‘ulot va loyiha ishlari orqali innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Shu tarzda, ijodiy qobiliyat shaxsiy rivojlanish bilan birga, guruh va jamiyat rivojiga ham hissa qo‘shadi. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda shaxsiy motivatsiya va qiziqishning roli katta.

Ijodiy qobiliyatni shakllantirish jarayonida muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Talabalarga turli murakkab vaziyatlar va real hayotiy muammolarni echish topshiriqlari berilganda, ular yangi yondashuvlar, g‘oyalar va echimlarni yaratishga majbur bo‘ladi. Shu tarzda, innovatsion fikrlash rivojlanadi va ijodiy qobiliyatning amaliy ko‘nikmalari shakllanadi.

Guruh ishlari va jamoaviy loyihalar ham ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Talabalar bir-birining g‘oyalarini baholaydi, muhokama qiladi va yangicha yondashuvlarni birlashtiradi. Bu jarayon nafaqat ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi, balki ijtimoiy ko‘nikmalar, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarning o‘zaro fikr almashuvi ularning innovatsion fikrlash darajasini oshiradi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Talabalar bilan individual ishlash, ularning qiziqishlari va kuchli tomonlarini aniqlash orqali pedagoglar har bir talabaga moslashtirilgan mashg‘ulotlar tashkil qilishi mumkin. Shu tarzda, talabalarning o‘zini erkin ifodalash va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati oshadi. Masalan, talabalarga mustaqil loyihalarni tanlash va amalga oshirish imkoniyati berilganda, ular o‘z ijodiy g‘oyalarini sinab ko‘radi va yangi yondashuvlarni yaratadi.

Shuningdek, ijodiy qobiliyat fikrlashni shakllantirishda tajriba va eksperimentlar muhim rol o‘ynaydi. Talabalar real hayotiy vaziyatlar va muammolarni hal qilish orqali o‘z ijodiy yondashuvlarini sinab ko‘radi, xatolardan o‘rganadi va innovatsion echimlar

ishlab chiqadi. Bu jarayon nafaqat ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, balki talabalarning mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni tahlil qilish qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. Guruh ishlari va hamkorlik orqali ijodiy qobiliyat yanada kengayadi. Guruh ichida muammolarni birgalikda echish, brainstorming mashg'ulotlari va interaktiv loyihalar talabalarga boshqalarning fikrlarini eshitish va yangi yondashuvlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, talabalar guruhdagi rollarni bajarish orqali ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va jamoaviy ishlash tajribasini oshiradi.

Shuningdek, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish jarayonida talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun tanqidiy va konstruktiv fikr almashish, brainstorming va mentorlik yondashuvlari samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar talabalarga o'z g'oyalarini rivojlantirish va innovatsion echimlar yaratishda qo'llash imkonini beradi, shaxsiy va individual rivojlanishni rag'batlantiradi.

Shuningdek, ijodiy qobiliyatni va kreativ fikrlashni baholashda zamonaviy diagnostik vositalar sifatida – testlar, loyiha natijalarini tahlil qilish va portfolio metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bular o'quvchining yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini, mustaqil fikrlash darajasini va individual rivojlanishini rag'batlantirib, rivojlantirib boradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish lozim bo'lsa, ijodkorlik – bu “daholik” emas, bu har bir insonning, qolaversa talaba yoshlarning ichki kuch-qudratidir. Biz – ustoz va murabbiylar, ota-onalar – shu qudratni o'yg'otishga, qo'llab-quvvatlashga va yo'naltirishga mas'ulmiz. Chunki bugungi ijodkor yosh – ertangi O'zbekistonning yangi kelajagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gilford Dj. P. Priroda chelovecheskogo intellekta.
2. Сойер Р. К. Объяснение креативности: наука о человеческих инновациях.